

KAMBAG`ALLIKNING KELIB CHIQISH SABABLARI, MOHIYATI VA ASOSIY MEZONLARI.

Karimova Oybibi Xamidovna

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi

universiteti registratura talabasi

lady.oybibi@mail.ru

Annotatsiya: Kambag`alik ma`nosi, uning kelib chiqish sabablari, mohiyati va unining muommolari haqida bo`lib, uni bartaraf etish uchun muhtaram prizidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan farmon va farmoishlar, bu mavzu mamlakatimiz rivoji uchun ahamiyatli va dalzarb hisoblanadi.

Kalit so`zlar: kambag`allik, Jaxon banki, kam taminlanganlik, pulning yetarli emasligi.

KIRISH

Teziz ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati: Bu mazvu ko`p yillardan beri mamlakatimiz tarixida yopiq mavzu bo`lib, kambag`allik o`rniga kam ta`minlanganlik so`zi ishlatilinib kelingan va bu muommoga chuqurlik bilan o`rganilmagan va dasturlar ishlab chiqilmaganligi oqibatida mamlakatimizda kambag`alik darajasi ortib ketib, bu muommo davlatimiz rivojiga ulgan hissa qo`shishi bu mavzuni dalzarb va zarur deb hisoblanadi.

Kambag`alik – bu oziq-ovqat, kiyim-kechak, boshpana, asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun pulning yetarli emasligi, dori-darmon, ta'llim va teng inson huquqlarining yetishmasligi deb ta'riflanadi¹.

Jahon banki tashkiloti kambag`allikka quyidagicha tarif beradi:

“Kambag`allik bu to`yib ovqatlanolmaslik, boshpananing etishmasligi, kasal bo`lib, shifokorga murojaat qila olmaslik, mакtabga bormaslik va o'qishni bilmaslikdir. Kambag`allik - bu ish yo'qligi, kelajak uchun qo'rquv, bir vaqtning

¹ https://www2.gnb.ca/content/gnb/en/departments/esic/overview/content/what_is_poverty.html

www.tadqiqotlar.uz

1-to'plam noyabr 2023

o'zida faqat bir kungina yashash. Ko'pincha kambag`allik - bu odamlar qochishni istaydigan vaziyatdir²" deb ta`rif beradi. Kambag`allik odatda buzish qiyin bo'lган olam bo`lib, ko'pincha avloddan-avlodga o'tib keladi. Ko'pchilik odamlar kambag`allik bilan tug'ilib, uni yengishga umidlari bo`lmaydi. Yana boshqalar esa salbiy iqtisodiy shart-sharoitlar, tabiiy ofatlar yoki turmush narxining oshishi, shuningdek, giyohvandlik, ruhiy tushkunlik va ruhiy salomatlik muammolari tufayli kambag`allikka tushib qoladilar. Bu mavzu yurtimizda ko'p yillar "yopiq mavzu" bo`lib, avvallari bu kategoriyaning o'rniga yumshatish qabilida "kam ta'minlanganlik" tushunchasi bilan almashtirib kelingan edi. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan ochiq demokratik siyosat tufayli mazkur muammoning mavjudligi, uning yechimi bo'yicha chuqur tahlillarni amalga oshirish, uni pasaytirish va kelajakda bartaraf etish haqida minbarlarda ochiq-oydin gapirilmoqda.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni zamonda, butun dunyoda olimlar, siyosatchilar, davlat arboblari va jamoatchilik vakillari o'rtasida kambag`allikning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, uni bartaraf etish yo'llari xususida ilmiy munozaralar, turli ko'rinishdagi davra suhbatlari va sababiy bog'liqlikda ilmiy-amaliy izlanishlar amalga oshirilmoqda.

Globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib, davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarining kengayishi natijasida hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) taraqqiyot dasturlarida belgilangan maqsadlarni hal etish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, chora tadbirlar samarasi o'laroq, qo'lga kiritilayotgan ijobiy tendensiyalarga qaramay, kambag`allik muammosi barcha rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekiston Respublikasida ham o'tkir muammolaridan biriga aylangan. Ayniqsa, kecha dunyo bo'ylab tarqalgan koronavirus pandemiyasi va global karantin sharoitida kambag`allikning salbiy sotsial effekti yana bir bor namoyon bo'ldi.

² 2000 yil, BMT bosh assambleyasi, mingyllik rivojlanish maqsadlari deklaratsiyasi

www.tadqiqotlar.uz

1-to'plam noyabr 2023

Darhaqiqat, kambag`allik birinchi marta, muhtaram Prezidentimiz SH.M. Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida respublikamizda kambag`allikni qisqartirishni echimi kutayotgan dolzarb masalasi sifatida kun tartibiga olib chiqdi. Bu borada, davlatimiz rahbari shunday o'ziga xos yondashuvni ilgari surdiki, unga ko'ra "Kambag`allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish, degani emas, balki eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish kerak" deyilgan³.

Xulosa:

Kambag`allik ko'rsatkichini aniqlash, uni tahlil qilishdan maqsad, davlat va fuqarolik jamiyatining kambag`al insonlar qatoriga tushib qolgan aholi qatlami uchun manzilli dasturlarni ishlab chiqish hamda aholi turmush darajasini oshirishdan iborat.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. https://www2.gnb.ca/content/gnb/en/departments/esic/overview/content/what_is_poverty.html
2. 2000 yil, BMT bosh assambleysi, mingyllik rivojlanish maqsadlari deklaratsiyasi
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521)

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. "Халқ сўзи" газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521)